

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «B» kurs talabasi

Ibragimova Faridaning

«O‘TGAN ASRNING 60-80 YILLAR O‘ZBEK SHE’RIYATI»

mavzusida tayyorlagan

REFERAT ISHI

Nukus – 2015

MUNDARIJA

1. Kirish
2. Hayotiy muammolarning badiiy talqini
3. Milliy ma`naviyat ifodasi
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Xalq ruhiga ozodlik, vatanparvarlik tuyg`ularini singdirishda she`riyatning roli va o`rni beqiyosdir. She`riyat o`ziga xos timsollar, ramz va istioralar, ohanglar orqali kishi ruhida shunday buyuk tuyg`ular uyg`otadiki, ularni qilich va qural kuchi bilan ham yo`q qilib bo`lmaydi. O`ttizinchi yillar adabiyoti hususan. Cho`lpon, Fitrat, A.Qodiriylarning asarlari xalq ruhiga shu holdagi vatanparvarlik tuyg`ularini joylab ulgurgan edi. Ammo ularning asarlaridagi bu xususiyatlarni, hozirgacha chuqur o`rganganimiz yo`q holbuki, bu mavzu mustaqillikka erishilgan hozirgi sharoitda, milliy-umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib, teran va obyektiv ishlansa ozodlikni mustahkamlashga, demakratiyani rivojlantirishiga, fuqarolar tafakkurlarini charxlashga, xalqni ma`naviy-ruhiy jihatdan yuksaltirishga sabab buladi. Ma`naviyatni va ma`rifati yuksak, tafakkur darajasi keng va chuqur xalq vakillarigina mustaqillikning qadriga etadi, chunonon vatanparvarga aylanadi. Prezidentimiz I.Karimov aytganidek: “Xalqimiz o`zini ozod, erkin deb bilib muhtojlik va qaramlik iskanjalaridan xolos bo`lgan, qaddini rostlagan, erkin nafas olganda iqtisodiy islohatlar muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin”.¹

Ma`naviyat va ma`rifat, vatanparvarlik va istiqlool, erkinlik va iqtisodiyot tushunchalari ko`rinmas rishtalar orqali bir-biriga uzviy bog`langan. Binobarin, ma`naviy, milliy-umum insoniy qodriyatlarni ulug`lagan, qaramlikka qarshi asarlarga boy adabiyot, oxir oqibat iqtisodiy-ma`naviy kamolot uchun xizmat qiladi. Demak, hurlik va vatanparvarlikni ruhiga joylagan, hayotni yuksak poetik shaklda badiiy tadqiq etgan she`riyat namunalarini haqqoniy tahlil etish, shu orqali yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mustaqillik mafkurasining va she`riyat qonunlarining ayrim qirralarini ochib beradi. Zero, chinakam she`riyat hayotining, inson ruhiyatining eng murakkab va chigal tomonlarini favqulodda sa`natkorogina aks ettira oladi. Boshqa san`atlar she`riyat ifodalagan ma`nolarning yuzdan birini ham ifodalay olmaydi. Binobarin, hayotni she`riy tadqiq etishning ijtimoiy-estetik va axloqiy ahamiyati bordir. V.G.Belinskiy aytganidek:

¹ Karimov I. O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo`nalishlari. –T.: “O`zbekiston”, 1993, -B. 19.

“Hayotning og`ir tomonlaridan hayojanga tushmaydigan, murakkabliklardan jirkanadigan san`akorlar haqiqiy ijodkorlar emas. Haqiqiy san`atkor hayot mavjud joyda poeziyani ham topa oladi”.

Darvoqe, biz haqiqiy sana`tkor, haqiqiy iste`dodlar haqida ko`p gapiramiz, ammo ularning tabiatiga xos xususiyatlarni ko`p ham hisobga olavermaymiz. Haqiqiy san`atkorlar, iste`dod egalari – xalqqa, Vatanga e`tiqod qo`yibgina qolmasdan umr bo`yi el xizmatida bo`ladilar, uning ravnaqi, kelajagi uchun yonib yashaydilar. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi mutaffakirlarning o`ziga xos fidoyiliklarining bosh sababi ular ruhidagi iste`dod va e`tiqod olovidir.

Asrimiz boshlarida o`z ijodini boshlagan Cho`lpon, Botu, Oybek kabi shoirlar xuddi shunday iste`dod va e`tiqod egalari edilar. Cho`lpon o`zining o`lmas she`riyati, dramalari nasriy asarlari bilan Vatanga, xalqqa istiqloлга xizmat namunasini ko`rsatdi. Uning ijodiy izlanishlari haqida keyingi paytlarda ancha-muncha ishlar qilindi. Xususan, Izzat Sulton, Naim Karimov, Salohiddin Mamajonov, Ozod Sharafiddinov singari qator adabiyotshunoslarning maqola va kitoblari bu jihatdan ilgari tashlangan qadam bo`ldi. Ammo, hozircha, biz Cho`lpon ijodini, uning istiqloлга qo`shgan hissasini, she`rlarining xalqimizni istiqloл ruhida tarbiyalashdagi rolini to`la ochib berolganimiz yo`q. Cho`lpon ijodiy muhit murakkablaridan kelib chiqib, o`sha sharoitdan boshqa shoirlar ijodi bilan qiyoslanib tahlil etilmadi, uning o`ziga sifatdosh, g`oyadosh adiblar ijodi bilan yondosh va farqli tomonlari kursatib berilmadi. Biz risolaning dastlabki bobida adabiyotimizdagi-demak ma`naviyatimizdagi shu kemptikni oz bo`lsa-da, to`ldirishga intildik.

“Jahon holi qolurmi hech qachon aqli rasolardan” deb yozgan edi, Furqat asrimiz boshlarida. Xalq orasida hamisha iste`dodli odamlar topilganidek, shoirlar ichida ham istiqloлni u yoki bu shaklda kuylovchilar mavjud bo`ladi. Milliy istiqloлning otashin kuychilari Cho`lpon, Fitratlar hayoti halokatli intiho topgandan so`ng ham adabiyotimizda istiqloл uchun kurash ruhi butunlay so`ngan emas. Qatag`onlardan yurak oldirib qo`ygan odam damini ichiga yutib, dardini shivirlab aytib yurganday, adabiyot ham «shivirlab», obrazlar, ohanglar, imo-ishoralar bilan

pardali qilib soʻzlay boshladi. Eng isteʼdodli shoirlar kompartiya haqida emas, bahor, goʻzallik, muhabbat haqida, tarixda oʻtgan buyuklar toʻgʻrisida koʻproq yozdilar.

Ayniqsa, 60-yillarga kelib sharoit talaba va isteʼdodli adiblarning etishib chiqishi tufayli Choʻlpon, Fitrat, U.Nosir anʼanalari yuqori pardalarda kuylandi. Milliy vatanparvarlik, istiqlol tuygʻulari A.Oripov, E.Vohidov, shu jumladan, M.Ali, R.Parfi, M.Aʼzam kabi shoirlar ijodida baland ohanglarda yangray boshladi. Bitiruv ishida bu anʼanalar qay yoʻsinda boshlanib, qay tahlit davom etganiga alohida diqqat qilishga intildik.

Isteʼdod egalarining hayoti ham, ijodi ham, silliq bir tekisda kechmagan. Choʻlpon, Botu, Oybek, ijodida boʻlganiday, E.Vohidov, A.Oripovlar ijodida ham shu xil ziddiyatlar, murakkabliklar mavjud. Bu xil ijodiy ziddiyatlarining ochib borilishi yosh isteʼdodlarga ijod murakkabliklarini teranroq his etishga yordam beradiki, biz yuqorida nomlari sanalgan shoirlar sheʼriyatidagi ana shu belgilarni koʻrsatishga harakat qildik.

HAYOTIY MUAMMOLARNING BADIY TALQINI

She`riyatning hayotni qaysi xil timsollar asosida, qay yo`sinda badiiy tadqiq etishi lirik qahramon siymosining qay suvratda namoyon bo`lishi, shoir iste`dodi, etiqodi va ma`naviyati bilan birgalikda ijtimoiy-adabiy muhitiga ham bog`liq. Anglashilinishicha davr yo`nalishi shoir e`tiqodi va iste`dodiga zid bo`lmasa, ijodkor o`z “men”ini asarlariga ko`proq, samaraliroq singdiradi. Aksincha bo`lsa, davrdagi yo`nalishlar shoir ruhi va ilhomi ustidan hukmronlik qilsa, yozgan har bir satri “elak”dan o`tkazilsa, ijodkor “men”i rangsiz va qashshoq holga tushishi mumkin. Ammo iste`dod shuning uchun ham iste`dodki, u o`zining tengsiz matonati, qarama-qarshiliklarni enga olish qudrati bilan muhit dovullarini engib, ulug` va betakror asarlar, isyonkor va jur`atli qahramonlar obrazini yarata oladi.

1917 yilgacha ham, undan keyin ham xalq va uning is`te`dodli vakillari hayoti silliq kechkan emas, uni silliq qilib ko`rsatuvchilar bo`lgan xolos. Ammo shunisi ham aniqki, Oktyabr` to`ntarishigacha, ayniqsa 1925 yillargacha matbuot, xususan, shoirlar ijodi o`ta darajada tsenzura elagidan o`tkazilmadi. Bolshovoylar ham adabiyot va san`atni bir hamladayoq o`z iznlariga sola olmadilar. Zero, o`sha paytlari hali to`la shakllanib etmagan bo`lsa-da, jadidlar rahnamolik qilayotgan demokratik oqim mavjud edi. Ular sho`ro hokimiyatining qaror va ko`rsatmalarini ijod ruhiga zid, shaxs erkinligiga yot ekanligini his etishardi. «30-yillargacha ham Cho`lpon, Fitrat kabi ijodkorlar garchi milatchi sifatida tanqid etilsa-da, ommaviy qatog`onlar ham to`la boshlanmagan edi. Yuqorida nomlari sanalgan adib va ziyolilar “adabiyot yashasa millat yashashini” (Cho`lpon) she`riyat xalq hayotini haqqoniy ifodalab berishi lozimligini bu yo`l oxir-oqibat ozodlik kurashchilarini tarbiyalashga asos bo`lishini chuqur tushunardi. Ikkinchidan, o`sha paytlari ochilgan gazeta-jurnallarda ham shu xil yuragida kurash va istiqlool ruhi kuchli bo`lgan qalamkashlar ishlardi».¹

Shunga ko`ra hayotga tanqidiy munosabat, voqelikni bor murakkabliklari va qarama-qarshiliklari bilan aks ettirish tamoyili avj oldi. Keyingi yillarda she`riyatni

¹ Norboev B. Istiqlol va iste`dod tarbiyasi. –T.: «O`qituvchi», 1996. 8-bet.

shiddat bilan rivojlanishining sababi, shoirlarning xuddi o'z qarzlarini uzayotgandek, urushdan keyingi yillar she'riyatida ko'rinmagan, ammo o'quvchini ham, adabiyotchilarni ham qiziqtirgan mavzularda ko'p yozishganidir. Men bu erda, avvalo, hayot bor murakkabligi va qarama-qarshiligi bilan ifodalangan she'rlarini ko'zda tutaman degan edi munaqqidlardan biri. Sobiq ittifoqning turli xududlarida yaratilgan she'rlarga xos bu xususiyatlar hayotni borligicha va murakkabligicha inson ruhiyatini bor ziddiyatlari bilan ifodalash A.Oripovning "O'ylarim", "Uyqu", E.Vohidovning "Nasihat", "Uchi tugik dastro'mol", M.Alining "Yuragim", R.Parfining "Shoir" kabi qator she'rlarida, ayniqsa, yorqin ko'rinadi. Aytaylik, E.Vohidov yuqorida sanalgan birinchi she'rida xushomadgo'y, og'irning ustidan-engilning ostidan yurishga o'rgangan zotlarni o'z tiliga fosh etsa, A.Oripov "O'ylarim"da bitta partiya hukmron bo'lgan totalitar tuzum partiyasini olib ulg'aygan, hayotning achchiq-chuchugini ko'rsa-da, o'z yo'lini topolmay qiynalgan yosh yigitning iztiroblarini qalamga oladi: «Yuragimga bir mahallar kirgan tuyg'ular, endi sizdan ketmaymiz deb so'raydi. Javob meni bir zum xoljonimga qo'ymaydi ular, qo'ymaydilar va'dalaring chiqdi deb sarob», singari satrlar sho'ro tuzumi davrida butun bir avlod yolg'on targ'ibotlarga ishonib, dunyoni faqat nur va yaxshilikdan iboratligiga imon keltirib, oxiri sarobga aylangan kishi holiga tushgani she'riy yo'sinda ifodalab beriladi. A.Oripov she'riyatida tazod-antiteza san'atini mahorat bilan aks ettiradi. Jumladan, "Avlodlarga maktub"da jamiyatdagi qarama-qarshilik shu taxlid ifodalangan. "Avlodlarga maktub" qahramoni voqea hodisaga biroz istehzo bilan qaraydi: hayotdagi qing'irliklardan avlodlarni ogoh etishga mas'ul kishi sifatida ko'rinadi.

Ko'plab shoirlarning ijodida biz xuddi hayotdan norozilik, chinakam, dorilomon, ozod kunlarga tashnalik hissini sezamiz. Bular she'riyatda mavjud jamiyatdan norozilik hissi uyg'onib, qator asarlarda hayotni bor murakkabliklari, qarama-qarshiliklari bilan ifodalash orqali hur fikrlilikka yo'l ochish tamoyili kuchayganini ko'rsatadi. "Hozirgi she'riyatimiz uchun harakterli tendentsiyalardan biri, unda fikrlar va tuyg'ularning, xatto she'riy shakllarning murakkablashib

borayotganidadir... endilikda murakkablik ham yuksak badiiylilikning bir belgisi sifatida tan olinmoqda”.¹

Bu xil uslub 60- yillar she`riyati uchun xarakterli, avvalgi 10 yillik (1946-1956) nazm namunalarida uchramagan yana bir xususiyatni tug`dirdi: bu Vatan va xalq tushunchalarini yarakdan his etish, milliy shuur va vatanparvarlikning keng ildiz otishidir. She`riyatimizda O`zbekiston bilan, o`zbekligi bilan faxrlanish g`oyasi kishilarimizda milliy g`urur tuyg`ularini uyg`otishga xizmat qildi.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug`bek, Ko`ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk qo`ydi narvon o`zbekim,
Mir Alisher narasiga aks sado berdi jahon
She`riyat mulkida bo`ldi, shoxi sulton o`zbekim!

Amerika sehrli diyor
Uxlar edi Kolumb ham hali
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash`ali,
Kolumda bor alamim manim,
O`zbekiston Vatanim manim (228)

Ushbu tamoyil bir jihatdan 60-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, adiblarga berilgan ma`lum erkinliklar, qolaversa, sobiq ittifoqda bu xil yangi ruhni boshlab bergan buyuk shoirlar ifodasining ta`siri edi. Xususan, R.Hamzatov o`sha paytlari “Mening Dog`istonim” asarini yozib vatanparvarlik namunasini ko`rsatgan edi. Bu ruh E.Vohidov, A.Oripov kabi shoirlar ijodida ham avj oldi. O`sha davrgacha A.Oripovdan boshqacha hech bir o`zbek shoiri “O`zbekiston- Vatanim manim”, degan misrani bosh shior qilib olmagan, yurtimiz haqida yozilgan she`rlarda Ona xususida so`z ketsa-da, she`r orasida ittifoqni vatan deb bilish haqida ham albatta gap yuritiladi. She`riyatimizdagi asosiy tamoyillar iste`dodi yuksak, etuk talantlar

¹ Normatov U. She`riyatimiz ko`lami. «Sharq yulduzi», 1997. №4. 181-bet.

ijodida ayonroq ko`rinishini hisobga olib A.Oripov va E.Vohidov ijodi haqida mufassalroq to`xtalamiz. Ayni zamonda, yuksak iste`dod sohiblari ijodi ham silliq va ravon kechmasligi, bu “yo`l”ning o`nqir–cho`nqirlari “yorug`” va “soya” joylari, ayni zamonda, silliq tomonlari ham bo`lishini dalillar orqali asoslashga harakat qilamiz. Zero, chinakam shoirlar birovlar belgilab bergan yo`llardan yurmaydilar. Ular ijodi cho`qqiga qarab yuksaladigan yo`lga o`xshasa-da, silliq emas, o`ziga xos murakkab yo`ldir.

20-30-yillarning isyonkor ijodkorlari kabi O`zbekiston xalq shoirlari E.Vohidov va A.Oripov ijodiga ham shu nuqtai nazardan yondashar ekanmiz, ular she`riyatidagi yuksalish, pasayish, yana yuqorilash davrlari haqida atroflicha fikr yuritib, ayrim xususiyat va tamoyillarni aniqlashga qaratilgan kuzatishlarimizdan ma`lum bo`lishicha, yuksak iste`dod egalari jamiyatdagi va xalq qalbidagi ma`naviy-ruhiy jarayonlarni ilg`ab olish qobiliyatiga ega bo`lib, etuk ijodkorlarning birida bu qobiliyat susaysa ikkinchisida xalq ma`naviyati talab qilgan shu g`oyalarni yuksak ohanglarda kuylash majburiyati paydo bo`larkan. Jumladan, A.Oripov 60-yillarda hayotdagi og`riqli, alamli ohanglarni, illat va dardlarni mohirona ilg`ab olib, nohaqlikni bor ovoz bilan fosh qilgandi. O`zbekiston xalqlari og`ir jismoniy-ruhiy qiyinchiliklar ostida ezilayotganini goh bevosita, goh bavosita aks etirgandi.

Shoirning bu davrdagi ijodida mehnatkash xalq taqdiriga achinish, eldoshlarini ma`naviy kamolotga chorlash tuyg`ulari ayonroq sezilib turdi. Xususan, “O`zbekiston”, “Saraton” she`rlarida dehqon mehnatining dahshatlari ramziy tashbehlarda, ko`rimli tasvirlar orqali bor bo`yi bilan ochib berilgan. “Saraton” mahzun ohang, dehqon ishlayotgan muhit tasviri, shuningdek, pauzaning alohida turidan foydalanib o`quvchi ko`nglida dehqonning qullarcha ezilib ishlashiga achinish hissi uyg`otadi. Aslida kishilarimizning ma`naviy yuksakliklarini zabt eta olmaganligining bir sababi ham shu mehnat ekanligini anglatadi. Ma`lumki, sho`ro davrida o`lkamizning paxta, pilla, qorako`l teri kabi mahsulotlarni etishtirib beruvchi xom ashyo manbaiga aylantirilishi, hatto Buxoroda topilgan gaz konining kaliti Moskvaga topshirilib, qimmat baho yoqilg`ining darhol sobiq ittifoqining

markaziy shaharlarga olib kelishi shusiz ham umumtaraqqiyotdan orqada qolgan xalqimiz uchun kichkina yo`qotish emas edi. Bu xil yo`qotishlarning moddiy-ma`naviy zararini yurakdan his etgan A.Oripov “Saraton”, “Sovg`a” nomli she`rlar bitib, unda xalqimizning ilg`or vakillari qalbidagi iztirob va dardlarni aks ettirdi. O`zbekiston xom ashyo manbai bo`lib qolayotganini, shu tufayli rivojlanishning ulkan yo`liga chiqa olmayotganimizni ichki bir norozilik hissi bilan bayon etdi:

Dilbar Farg`onadan sohibkor xalqim
Har yili uzatar tonnalab meva,
Bundayin bisotin ko`rmagan balkim,
Makkaga qatnagan millionlab teva,
Bizning paxtaga-ku, barcha muntazir,
Yer yuzi o`rtada ko`rmoqda baham,
Qanday bayon qilay fikrimni, axir,
Bugun olib keldik, o`timizni ham. (189)

Istehzo, alam, iztirob tuyg`ularini o`zida aks ettirgan ushbu misralar totalitar tuzum kirdikorlaridan ayrimlarinigina ochib bersa-da o`sha davr uchun bu hazilakim jasorat edi. Harakterli jihati shundaki, xuddi shu yillarda (yuqorida nomi tilga olingan “Nasihat”, “Uchi tugik dastro`mol” singari ayrim she`rlarini hisobga olmaganda) E.Vohidov shodlik va baxtni ko`proq kuylayotgandi. Shoir lirik qahramonning o`ziga o`shanda hamma narsa quvonch manbai bo`lib ko`rinib, Dunyo unga “Shodlik uchun yaralgan”, hayot “sevmoq uchun berilgan”day ko`ringan. Zero, o`shanda xalqning og`riqli yaralarini kelayotgan shoir. A.Oripov zo`r berib ijod etib, dolzarb muomalarning mahorat bilan olayotgandi. E.Vohidov bu paytda ayrim muommalarni goh-goh ko`tarib chiqayotgan bo`lsa-da xuddi ikkinchi shoirga halaqit bergisi kelmayotganday, boshqacha ohanglarda kuylardiki, ijodiy jarayon uchun bu ham tabiiy hol.

70-yillar oxiri 80-yillarning o`rtalaridan boshlab A.Oripov ijodidan falsafiylik kuchaydi, shunga yarasha oshkora kurash ruhi biroz bo`lsa-da susaydi.

Buning bir sababi shoirning 70-yillarga kelib “Ilohiy komediya”day inson ruhiy olamidagi murakkabliklarni ochib beradigan asarni tarjima etayotgani bo`lsa yana biri ijodkor sifatida, kurashib yashashdan foyda yo`qligiga ishonib qolgan edi. Xususan, shoirning qator (“Noma`lum odam”, “tafakkur monologi”) she`rlarida insonning o`ta faol bo`lishidan foyda kam, deb bilgan qahramonning obrazi yaratilgan. Shoir e`tiroficha, bu qahramonning dunyoni teran anglaydi, tug`ilishni shidatga tortilgan kamon, o`limni esa ”nishonga borib tekkan o`q”, deb biladi. Balki shuning uchundir, hamma narsa unga mayda, arzimas bo`lib ko`rinadi: “Olamning bu mayda g`alvasi nechun, bari o`tadigan bari nokerak” (“Noma`lum odam”) deb o`ylaydi. Bu fikrlar garchi oliy – umuminsoniy haqiqatlarga yaqin tursa-da, millat va xalqning kelajagi uchun kurashib yashash lozimligi haqidagi hayotiy haqiqatlarga mos kelmaydi. “Tafakkur monologi”da ham shoir shu yo`sinda fikr yuritadi. She`rdagi “Tafakkur” o`zini zaminda mutloq hokim, deb xis etadi. Uning uchun sonsiz sayyoralarning charaqlab turishi – shunchaki oddiy hol! Bahri muhit: “chayqalgan suvlardir, rangsiz va nursiz”, tog`lar: “shunchaki sangzor” xullas u o`zicha hamma narsani tushungan, hal etgan, biroq: “Faqat idrokimga zanjirdir shu g`am, seni eplolmadim, juvonmard odam”-deydi u. Shu bilan go`yo insonni tushunish, tarbiyalash qiyin, hatto mumkin bo`lmagan holdir, deganday bo`ladi. Lirik “men” bir paytlar insonning har jihatdan kamolga etishiga qattiq ishongan, bu niyat yo`lida kurashgan, ammo endilikda bu kurashdan foyda yo`q, degan xulosaga kelib qolgan odamni eslatadi. A.Oripov she`rlaridagi kurashchilikning susayishiga ham shu xil kayfiyat sabab bo`lgan bo`lishi mumkin.

Davr mohiyatini ochish va uni qahramon taqdirida aks ettirish borasida shoirlarimiz hajviy she`rlar va qahramonlardan ham mohirona foydalandilar. E.Vohidovning “Donish qishloq latifalari”, A.Oripovning “Hangoma” kabi asarlari misolida kuzatadigan bo`lsak, ijtimoiy voqelik, shoirlar dunyoqarashi, realistik tasvir madaniyati turkumlar tabiatiga ichki sifat o`zgarishlari olib kirganligini ko`ramiz. Ushbu turkumlardagi bosh qahramon – shoirning g`oyaviy-estetik ideali. Lirik qahramonining olam va odam to`g`risidagi mushohada-o`ylari, psixologik kechinmalari silsilasi, voqeaband holatlar syujet oqimini belgilayotir. Xususan,

“Donishqishloq latifalari”ning badiiy strukturasi o`zgacha. Shoir “meni” – lirik qahramon asar voqealarini hikoya qilib beruvchi ob`ektiv qahramon sifatida namoyon bo`layotir. Turkum “Matmusaning qishlog`i”, “Matmusaning qalpog`i”, “Matmusaning lagani”, “Matmusaning charxpalagi”, “Matmusaning tandiri”, “Matmusaning uylanishi”, “Matmusaning dutori”, “qiziquvchan Matmusa”, “Tandir kiygan Matmusa”, “Matmusa – rassom”, “Matmusaning mehmondo`stligi”, “Matmusa va o`g`rilar”, “Matmusaning qo`shig`i”, “Matmusaning Amerika ochishi”, “Matmusaning haykali”, “Matmusaning eshak sotgani” singari she`rlardan tashkil topgan. Har bir voqeaband she`r, mustaqil va tugal mazmunga ega. Ularni Donishqishloq odamlarining, xususan, Matmusaning g`aroyib shaxsiyati, fe`li-atvori, hatti-harakati bilan bog`liq hikoyalar bir silsilaga birlashtirgan. Ko`rinadiki, mavzu butunligi, problemalar mushtarakligi – bu she`riy turkumlarning yaxlitligini ta`minlanayotgan zohiriy unsurlar.

Muhimi, Matmusaning ichakuzdi kulgili hatti-harakatlarini, aql bovar qilmaydigan g`aroyib fe`li-atvorini hikoya qilish orqali badiiy umumlashmada aytilayotgan ibratli ma`noda. Ana shu hikmatli mazmun she`riy turkumning mehvarini tashkil etadi. Har bir she`rga badiiy-estetik butunlik bag`ishlaydi. Kompozitsion yaxlitligini ta`minlaydi.

Matmusaning qishlog`i g`oyat ajabtovur. qishloq ahli uylarining tomiga jo`yak tortib makka ekadi. Kalishini perronga yechib, yalang`och yoki mahsichan poezdga chiqib ketaveradi. Echkisini sartaroshga olib borib, soqolini qirtishlatgan ham donishqishloqliklar bo`ladi. Bir yo`la yuz qop semonni suvga qorib, shimi pochasi-gacha shimarilgan alpozda sement ichida qotib qolgan, oyog`ini ko`chirolmagan ham o`shalar. Osmonga bo`y cho`zgan minoralarni teskari turib qolgan “quduqlar”, deya hayolga tolgan ham donishqishloqliklar aslida. Devori yo`q hovliga darvoza o`rnatgan, pashshaga sopqon otgan, chivinga qopqon qo`ygan, oyga chiqish uchun temiryo`lni ko`tarsa bas, tayyor narvon-da, degan ham shu qishloq odamlari.

Donishqishloq odamlari shunaqa g`aroyib yurish-turishi, fe`l-atvorli, qilmishlari latifa misol. Matmusa ana shu qishloqdan. “Matmusaning qalpog`i” she`rida hikoya qilinishicha, u bozordan qalpoq sotib oladi.

Qalpoq emas – ertak u,
Qalpoq emas – tilla toj.
Qo`yingchi, restoranda
Yuvmasa hech yo`q iloj.

Matmusaning sheriklari qalpoqni aroq bilan “yuvishadi”. Shunchalik berilib ketishadiki, oxiri hisob-kitob mahali pullari etmagach, o`rniga qalpoqni topshirib chiqishadi.

Ma`naviy-ahloqiy to`kislikkina odamga barkamollik bag`ishlaydi; odam aqlan va jisman go`zal bo`lsagina atrof-tevaragini o`ragan olam ham bekami-ko`st chiroy kasb etadi. Bu – Erkin Vohidov she`riyati mag`zini ta`minlagan ustivor badiiy-estetik kontsepsiya. “Donishqishloq latifalari” turkumi ana shu bosh g`oyaviy-badiiy mazmunni yoritishga qaratilgan.

Shoir shu taxlit atrof-tevaragida kechishi mumkin bo`lgan voqea-hodisalarni inkor etayapti. Matmusa monand “mehmondo`stlik” ko`rinishlarini rad qilayapti. Va shu tariqa shoir o`zining mantiqan dalillangan, hissiy-estetik idrokiga tayangan go`zallikni yoqlash printsipini olg`a surayotir.

Matmusaning shu tahlit “mehmondo`stligi” istehzo aralash kulgi qo`zg`otadigan yoki ko`ngilning chekkasida bir chimdim achinish hissini uyg`otadigan holat emas. Agar chuqurroq razm soladigan bo`lsak, Matmusaning ma`naviyati uvalanib, to`kilib tamom bo`layotgan devorga o`xshaydi. Bir chekkadan emirilib adoyi tamom bo`lib borayotir. Inson shaxsiyati ko`z o`ngimizda sinib, darz ketib parcha-parcha bo`laklarga bo`linib, sochilib ketayapti. Shaxsning ana shu taxlit fojeasini, intellektual qashshoqlanish holatlarini Matmusaning yurish-turishi, fikrlash va so`zlash tarzi orqali yoritiladi.

Donishqishloq odamlari fe`li-faoliyatidagi ma`naviy-intellektual noqislik unsurlarining latifa shaklida ifodalanayotgani badiiy shartlilik ususlaridan biri. Kosa tagidagi nim kosa tarzida “yashirib” aytilayotgan tagdor ma`nolar esa ana shu

badiiy ifoda orqali ayonlasha boradi. Ya'ni o'quvchi undan ma'nolar o'qishga, serqatlam mazmunni anglashga moyillik sezadi.

Shoir nima sababdan shu yanglig' badiiy ifoda usulini tanlaydi? Avvalo, bu narsani voqelikning o'zi taqozo etgan. Hayotimizda Donishqishloqda kechayotgan g'aroyib hodisalarning aynan o'zi bo'lmasa-da, shunga monand holatlarning borligidir. qolaversa, shoir ana shu hayot materialini idrok va ifoda etishda badiiy to'qimaga keng erk beradi. Voqea-hodisalar "ko'ngliga" yashiringan ma'nolarni yoritish uchun latifalarga mo'l-mo'l murojat etadi. Ana shu latifali mazmunga yo'g'rilgan she'riy hikoyalar hayot materialiga chuqur ma'nodorlik bag'ishlaydi. Ya'ni hayot haqiqatini anglashning o'ziga xos badiiy usuliga aylanadi.

E.Vohidovning shoirlik san'ati shundaki, u she'riy turkumlari ichki strukturasini mumtoz adabiyotimizda, fol'klorda sinovdan o'tgan ifoda vositalari, badiiy priyomlar hisobiga boyitadi. Hikoya ichida hikoyalar, latifalar, afsonalar zimmasiga bugungi kunimizda kechayotgan voqea-hodisalarning botiniy ma'no qirralarini yoritish vazifasini yuklaydi. Shu tariqa bugungi kunning ma'naviy-ahloqiy masalalariga javob izlaydi.

Shu ma'noda, "Matmusa va o'g'rilar", "Matmusaning qo'shig'i", "Matmusaning haykali" she'rlari e'tiborlidir. "Matmusa va o'g'rilar" she'rida hikoya qilinishicha, Matmusa bir kuni savdo qilib uyiga qaytayotgan mahali yo'lda shaharlik o'g'rilar qo'liga tushib qoladi. Matmusaning bor-budini tortib olib, obdon do'pposlashadi. Dodlagan ovozi uzoq-yaqinga eshitilmasin, deb tag'in karnay chalib turishadi. Shu-shu Matmusa uzoq yillar shaharga yo'lashga yuragi dov bermaydi. Boshidan o'tganni birovga aytishga ham istihola qiladi. Ko'pchilik o'rtasida kulgi bo'lishidan hayiqadi.

Kuzatishimizcha, 60-80-yillarda tarix va xorij voqeligini o'ziga xos yo'sindan she'riy talqin etish, shu orqali zamon hodisalari va inson ruhiyatining boshqalar nazarida ko'rinmaydigan, muayyan ma'noda ta'qiqlangan qatlamlarini turli majoziy timsollar, obrazlar, uslublar yordamidan ochish tamoyili bo'rtib ko'rinadi. Taniqli turk olimi Ziyo Ko'kal aytganidek: "har-bir xalq o'z tarixining eng qadim manbalariga tayanib, milliy hayotining ilk inkishof harakatlarini idrok etsa, uning

ruhiyati tubdan yangilanadi. Tarixdan olinajak foizlarga, xalqning olis o`tmishidagi yaratgan afsona, rivoyat va asotirlari ham qo`shilsa, milliy ma`naviyat yanada yuksaladi.” Shoirларimiz milliy ma`naviyatni yuksaltirishga alohida e`tibor bilan qaradilar. Bu yillarga kelib tarix va xorij mavzusiga murojat qilib yozilgan she`rlaridan sifat o`zgarishi yuz berdi. Ma`lumki, avvalgi (1946–1956) o`n yillikdagi she`riyatda ham tarix va xorij mavzusiga murojat qilingan. Ammo bu xil she`rlarda o`tmish ko`proq qora bo`yoqlarda ko`rsatilgan va sotsialistik yo`lga moyil mamlakatlardan boshqa barcha kapitalistik mamlakatlar va ularning sarkorlari so`kish va harakatlariga duchor etilgan, ularning tuzumi nobopligi qayta – qayta uqtirilgan.

MILLIY MA`NAVIYAT IFODASI

Biz biror ijodkorning yaxlit bir asari yoki butun bir ijodi xususida fikr yuritmoqchi ekanmiz, avvalom bor uning boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, faqat o`zigagina xos bo`lgan xususiyatlari haqida gapiramiz. Haqiqatdan ham adabiyotimizda qanchadan-qancha nomayondalar etishib chiqqan. Lekin ular bir-biriga sira o`xshamaydilar. Negaki har bir ijodkor o`z ovozigaga, o`z uslubiga ega. Bu esa adabiyotimizning ijodkor orasidagi birinchi talabidir.

Ijodkorning burchi va mas`uliyatini his qilgan har bir talant sohibi bu so`zlarni o`z ijodi uchun bir qonun sifatida qabul qiladi. Adabiyotimiz maydoniga nazar tashlasak, adabiyotimiz faxri bo`lgan barcha so`z san`atkorlari ham shu gaplarni ijodkorlarining oldidagi eng zarur talab hisoblaganliklarining guvohi bo`lamiz.

Ha, darhaqiqat chinakkam shoir dunyoni o`z qalbi bilan his qilib, o`z ko`zi bilan ko`radi va uni o`z ovozi bilan kuylaydi. Shundagina chinakkam poeziya tug`iladi. Bunga qanday erishish mumkin? Bu esa bevosita ijodkorning poetik mahorati masalasi bilan bog`lik.

Avvalo, poetik mahorati va unga erishish yo`llari haqida qisqacha ikki og`iz so`z:

«Fikr va bilim boyligi o`zining yaxshiroq ifodasini topishi uchun boy formaga, ya`ni mahoratga muhtoj. Mahorat esa katta hayot haqiqatini ifodalab bera olish san`atidir»¹ - degan edi K.Fedin.

Haqiqatdan ham poetik mahorat bu-borliqni, hayot haqiqatini to`g`ri aks ettirish, she`riy yo`lni mukammal egallash demakdir. Bunga erishmoq uchun esa tinmay o`z ustida ishlamoq, izlanmoq, hayotni chuqurroq o`rganmoq kerak. Ayniqsa, mahorat-mashaqqatli mehnat, poeziyaga bo`lgan muhabbat tufayli yuzaga chiqadi. Poeziyaning osmoni kengayib borayotgan bugungi davrda hayotni o`z ko`zlari bilan ko`rib, o`z qalblari bilan his qilib, o`z ovozlariida kuylashga-o`zlariga xosliklarini namoyish qilishga intilayotgan bugungi she`riyatimiz vakillarining adabiyotimizdagi o`rni betakrordir. Xo`sh, ana shu avlod mahorati devonlarni qanday zabt etmoqda? Bu avlod poeziyasining etakchi xususiyatlari qanday? Bugungi poeziyamizga sinchiklab ko`z tashlagan odamlar biz so`z yuritayotgan davr ijodkorlarining hayotga yangicha munosabatda bo`lishga, yangi-yangi poetik obrazlar yaratishga intilayotganligining guvohi bo`ladi.

50-yillar oxiri, 60-yillar boshida iste`dodlarning unib o`sishini ta`minlaydigan bir muhit yuzaga keldi. She`riyatga E.Vohidov, A. Oripov, M. Ali, R.Parfi, G.Nurullaeva singari qator iste`dod egalari kirib kelishdi. Ularning har birining she`riyatida o`z o`rin va roli bor. Ammo biz bu o`rinda E.Vohidov A.Oripov ijodiga ularning mahorati muammolariga diqqat qilmoqchimiz. Chunki ular ijodida she`riyatidagi ijobiy xususiyatlar, hayotiylik va tabiiylik, muammolariga jiddiy munosabat, illatlarga murosasizlik ayon sezilib turadi.

Albatta, E.Vohidov yoki A.Oripov she`rlaridagi bu xil ijobiy xususiyatlar, lirik qahramon harakteridagi tabiiylik darhol namoyon bo`ladi. Shu darajaga etguncha ular ijodi ma`lum jarayonni bosib o`tdiki, biz buni ham ko`zdan qochirmasligimiz kerak. Bu yosh iste`dodlar tarbiyasiga, o`quvchilar ma`naviyatining, didining o`sishiga ozmi ko`pmi ta`sir etishi mumkin.

E.Vohidovning ilk she`rlari mazmun jixatdangina emas, shakl jihatidan ham xavas qilarli darajada sillik, ravon, satrlar beozor tuyiladi. Ularda sho`ro maktabi

¹ Badiiy ijod haqida yozuvchilarning nutq va maqolalari. Toshkent, O`zdvashr, 1960. 140-bet.

va g'ayratiiy to'garagining tarbiyasini olgan yosh yigitning qalb zarblari sezilib turibdi. Har bir xislat va fazilat solishtirishda yorqin ko'ringanidek, E.Vohidov ijodidagi yuqorida qayt etilgan xusuiyatlar ham A.Oripovning dastlabki she'rlari bilan qiyoslansa aniqroq ko'rinadi.

E.Vohidovning ilk she'rlarini o'qisangiz, shahar maktabida o'qib ulg'aygan, tabiatda ham, qalami ham silliqlangan, qalbida bir dunyo orzular bilan yashayotgan yosh yigitning ma'naviyatini tasarruf etamiz. A.Oripov ilk she'rida esa cho'llar qo'ynida tug'ilgan o'z extiroslarini goh jilovlasa, gohida jilovlay olmaydigan qahramon siymosi gavdalanadi. Bu qahramon harakterida, go'yo, cho'lu biyobonlarning keskin tabiati, tog'larning g'odir-budurligi aks ettirganday tuyuladi.

Shaloladek bo'lsa she'rlarim,
Yog'du sochsa misli alanga –

deydi u ilk she'rlarining birida. Uning bu xil satrlarida tabiatida iste'dod urug'lar bor kishilarga hos – ehtiroslarini zarur so'zlar topib ifodalay olish va yuksak orzu umidlar bilan yashash xususiyatlari seziladi: “deyman, osmonlarning hiloli bo'lsam, Hulkar va Zuhrasi bo'lgim keladi” – deydi u ijodining dastlabki paytlaridan qog'ozga tushirgan yana bir she'rida, lirik qahramon shunchaki yulduz emas, Hulkar, Zuhra kabi alohida ajralib turish oson emasligini, “Bunda ko'p gap bor”ligini ham sezadi shoirning ilk she'rlarida badiiy jihatdan pishiq misralar bilan birga “Milt-milt yonayotgan jajji dil so'zning, yulduzlar chamani ichra sho'x bo'ylab” (“Yulduzlar”) singari badiiyat da'vosi bor, ammo ma'nosi mavhum misralar ham uchraydi. Bu xil misralar faol qahramon siymosiga ham ozmi ko'pmi soya tashlaydi, uning asl niyat – mudaosi nima ekanligini anglashga monelik qiladi.

E.Vohidovning ilk ijodidan ma'nosi nisbatan engilroq, ozmi she'rlarini topish mumkin, ammo yuqoridagi kabi soxtalik va mavxumlik unga begonaligi sezilib turadi. Binobarin, G'ayratiiy to'garagi bilan bu o'rinda, iste'dod qalamini

charxlash ma`nosida ijobiy rol o`ynagan bo`lishi tabiiy. Ammo ilk ijodidayoq ma`lum aqida, jilovlar ta`sirida shakllansa, bu hol shoirning ijodiy estetik printsiplari o`zgacharoq shakllanishiga sabab bo`lishi mumkin. E.Vohidovning ilk ijodida biz A.Oripovning dastlabki she`rlaridagi kabi tuyg`ular tug`yonini ko`rmaymiz: ularning aksariyatida o`ziga xos o`ychanlik, sokinlik, sillqlik, mantiqlik, ayon sezilib turadi: shoir o`zining dasturini o`rtaga tashlab Vatan: “Bugun senga faqatgina she`r bag`ishladim, kerak bo`lsa jonni fido qilgim keladi”,- deydi.

E.Vohidov bir she`rida yo`llarga qarata: “Shoir bo`lsam ko`rarman sizdan” desa, “Qalamda”da: “Meni yurtim, davlatimga, xalqimga xizmat qilish davlatiga etkazding”-deydi. Bu satrlardagi “Ko`rarman sizdan”, “Davlatiga etkazding” kabi turli ma`no tashuvchi so`z o`rinlari tufayli she`rxon qalbida o`ziga xos mayin ehtiroslar uyg`onadi.

A.Oripovning ilk she`rlaridan birida mahbubaga “qayda sening latif qiyofang”?- deya savol bergan lirik qahramon o`zining holatini ayon etib: “yuragimda hislar tutoqdi”- deydi. Bag`riga bu darajada o`tli hissiyotlarni joylab olgan she`rlar shoirning talabalik yillarida yozgan (“Kuz”, “Sevgisiz odam” kabi) nazmiy asarlari orasida ham oz emas.

Oylar, yillar o`ta borgan sari bu shoirlar 20-30 yillarda faol ijod qilgan Cho`lpon, Fitrat, U.Nosir, Oybek, H.Olimjon kabi ustozlarning an`analarini davom ettirib hayotdagi bor tuyg`ular, bor rang - ohanglarni yanada samimiy va tabiiy misralarda tarannum eta boshladilar. Olamdagi bor rang va ohanglarni kuylash ularning vijdoniy burchi, chin e`tiqodiga aylana bordi. Biroq, hayot kabi shoir ham nihoyatda murakkab va ziddiyatlidir. Hayot yo`lidagi o`ziga xos murakkabliklar, ziddiyatlar hech shubhasiz shoir ijodiga, uning ijodiy estetik printsiplariga ta`sir qiladi. Shoirning orzu – istaklari, nimani yozib nimani yozmasligi va qanday kuylashi shaxsiy hayotining qay yo`sinda davom etishiga ham bog`liq.

E.Vohidov ijodining boshlarida yozgan dasturiy she`rlaridan birining qahramoni: “Yo`q, xalovat istayman, orom bilmas yosh jonim, to`lqin urgan ummoncham bor yurakdagi tug`yonim”,- degan edi. E.Vohidov hozirgacha o`z

lirik qahramoni aytganidek, junbushga tushib, tug`yon urib yashadi, deyish mumkin. Ammo tug`yon bilan tug`yonnig, yashash bilan yashashning farqi bor. E.Vohidovning kuchli hayajon bilan qalam surgan, keskin fikrlar bilan maydonga chiqqan paytlari kam bo`lmadi. Ammo qaysi davrlarda shoir ijodi qaysi yunalishda bo`ldi? Uning lirik qahramoni yillar osha qanday xususiyatlarni orttirdi va qaysi fazilatlarini berdi?

E.Vohidov yuqorida qisman eslatilganidek, o`z hissiyotlarini o`ta oshkor qilavermaydigan, ehtiyotkor, me`yorni saqlay biladigan shaxs sifatida ko`rinadi. Balki G`ayratliy maktabi, balki harakteridagi shu xil kam suqumlik, ehtiyotkorlik shoirning dastlabki ijodida hayotning yorug` tomonlarini, shodlik va baxtiyorlikni kuylashiga sabab bo`lgandir? Har holda uning lirik qahramoni olamni shodlik uchun yaralgan deb ta`riflaydi, hayotdan go`zallik va nur topadi, yashnab turgan bog` va Vatanni aynan teng, deya ta`riflaydi. Uning qahramoni Vatanda: “Kezgan bilan, sayr etgan bilan, husniga xech to`yib bo`larmi?”,- deydi. Albatta, hayot qanchalik og`ir, murakkab, ziddiyatli bo`lmasin, shoir uning yorug` parchalarini kuylashi mumkin. Shu ma`noda E.Vohidovning yosh qahramoniga hayot go`zallik manbai bo`lib ko`rinishi bir jihatdan tabiiy. “Jilmayadi o`zida yo`q shod, yangi oy ham ketmay qoshingdan, etak – etak olib koinot, yulduzlarini sochar boshingdan” deya yurt go`zalligini ko`tarinki ruhda kuylash ham shu xolning natijasidir. Shuningdek, shoirning:

Men insonman, qalbimda otash,
Quyoshdan toj, oydan taxt ko`rdim,
Men insonman, ko`hna jafokash,
Tuproq`imda mangu baxt ko`rdim,-

deya e`tirof etishi ham ma`lum ma`noda tabiiy. Chunki, shoir zotiga hayot qanday ko`rinsa, u shunday kuylangani ma`qul. O`sha paytda E.Vohidov lirik qahramoniga hayot shunday ko`ringan, shodlik va baxtni ko`tarinki ruhda kuylagan ekan, unga shak keltirish qiyin. Agar ijodkor baxtni ishonarli va samimiy

kuylay olsa, uning asari goyaviy badiy yuksaklik kasb etsa, buni quvvatlash lozim. Qolaversa, yosh ijodkor ko`proq kitob ta`sirida bo`ladi. Bu ta`sir uning asarlarida aks etadi. E.Vohidov, qisman A.Oripovning ilk she`rlarida ozmi ko`pmi H.Olimjon, Mirtemir va Shayxzoda kabi shoirlarning hayotsevarlik ruhi bilan yo`g`rilgan asarlari ta`sirida sezilib turadi.

A.Oripovning “O`ylarim”, “Avlodlarga maktub” she`rlari shu davrning mevasi sifatida maydonga keldi. Birinchi she`rida fosh etilayotgan illat – yolg`on va soxtakorlik – dastlabki sof xislari barbod bo`lgan, qalbi jaroxatlangan yosh yigitning o`y tuyg`ulari orqali ochib beriladi. She`r qahramoniga ko`p masalalarda bir yoqlama ta`lim – tarbiya berishgan: chunonchi, hayotni mukammal dorilomon, shodlik va baxt makoni sifatida, insonni esa nurdan yaralgan farishta sifatida ko`rsatishgan.

“O`ylarim”ning qahramoni unib – o`sgan muhitni to`laroq tasavvur etish uchun, 50-60-yillar she`riyatida asosiy tamoyilga qisqacha sayohat qilsak o`sha davrda baxt va shodlik, g`alabalar va yutuqlar xususida, insonning naqadar baxtiyorligi to`g`risida baland ovozda kuylanganining guvohi bo`lamiz. O`sha davrda faol ijod qilgan shoirlardan ayrimlari daxshatli urushdan keyingi qiyinchiliklarga to`la zamon haqida: “Zafarla bezandi bizning asrimiz” (S.Nazar), “Barchamiz ham baxtiyormiz, eng ulug` davrondamiz” (S.Abdulla) singari misralar tuzishganini eslasak, bunga amin bo`lamiz. Hayot haqidagina emas, o`sha og`ir tiklanish yillari mashaqqatli mehnat bilan band, yarim och, yarim yalang`och zamondoshlari: “Senga faqat – o`zi yo`ldosh, saodat kutadi har bir qadamda”, “Gullar o`zi unadi, sening bosgan izingdan” (S.Zununova), “Istasak o`zgaradi tabiat, havo” (Uygun) deya ta`riflashar, baxtiyorlik hissi to`g`risida to`lib-toshib kuylashga o`zlarida majburiyat his etishardi.

“O`ylarim”ning lirik qahramoni xuddi shu xil targ`ibot, baxtiyorlik hissiga to`la she`rlar ta`sirida ulg`aygan avlod vakili. Hayotda illat va dardlar, g`am - alamlar yo`qligiga ishonib o`sgan qahramon o`z xissiyotlarini: “Ko`z oldimda shu qadarli pok edi olam, go`yo nurdan yaralgan inson degan zot” singari so`zlar bilan ifodalaydi. Lirik qahramon - soddadil o`zbek yigiti o`sha targibotlar ta`sirida

hayotga, kelajakka umid bilan qaragan, “oldimda ravon yo`llar turibdi mushtoq” deb astoydil ishongan.

Shoir bu sofdil o`smir holatini shundayin tabiiy tasvirlaydiki, ko`z oldimizda butun qalbi, vujudi bilan dunyoning sof ezguligiga, uni faqat oq rangdan yaralganiga ishongan pokiza ruhli vujud gavdalanadi.

Kishi yoshligidan bir narsaga qattiq ishonsa, uni bu yo`ldan qaytarish qiyin. Yuqorida qisman kurib o`tganimizdek sho`ro xukumati deyarli barcha avlodlarni oktyabr` tuntarishidan keyingi hayotini dorilomon bo`lganligi va ertangi kunimiz yanada porloqligi haqidagi yolg'on gaplar bilan aldab kelgan. “O`ylarim”ning qahramoni ham barcha zamondoshlari kabi bu gaplarga qattiq ishongan, dunyoda faqat yaxshilik hukmron deb o`ylagan hayotning qiyinchiliklari va murakkabliklariga duch kelgach, boshi toshga tegib ko`zi moshday ochilgan. Dastlabki ezgu tuyg`ulardan, beg`ubor xissiyotlardan voz kechish haqidagi o`ylarning o`zi ham uni iztirobga soladi:

“Yuragimga bir mahallar kirgan tuyg`ular, endi sendan ketgaymiz, deb so`raydi javob, meni bir zum holi jonimga qo`ymaydi ular, qo`ymaydilar va`dalaring chiqdi deb sarob”, - deya nola chekadi. Olamda insonning, xalqning istirobga tushishini bo`lishlar og`irroq manzara yo`q. O`lim yo`qotish urush, ochlik tufayli inson, xalq boshiga tushgan qiyinchiliklar qaysidir ma`noda, tabiiy qiyinchiliklar. Ammo uni jamiyat, to`g`rirog`i, uni bosh boshqarayotgan saltanat aldasa, qo`ynini puch yong`oqqa to`ldirsa va oxir oqibat u buning sarob ekanligini bilib qolsa, xalq uchun bundan daxshatliroq fojia yo`q.

I.Karimov aytganidek, xalq ochlikka, muxtojlikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikga chiday olmaydi. Afsuski sho`ro hukumati xalqni shunday laqillatib, aldab, adolatsizlikga yo`l qo`yib keldi. El yurtning asosiy qismi ertaga hayot yaxshi bo`ladi, qiyinchiliklar, fojiiyalar bo`lmaydigan, hamma baxtli hayot kechiradigan tuzumni ko`ramiz deb, jonini jabborga berib mehnat qilishdi, azob uqibat ko`rishdi va xozir ularning bir qismi olamdan ko`z yumdi.

Agar hayot bir tomonlama ko`rsatilmaganda edi, o`sha kishilar, balki, turmushni chinakkamiga yaxshilash uchun jon kuydirishdi. She`r mohiyatida

yashiringan tarbiyaviy ma`no shu: olamni va odamni yoshlarga, shu jumladan, xalqqa xaqqoniy fikrlar, sobit hissiyotlarini joylash, to`g`ri yo`lga bag`ishlash lozim, demoqchi shoir qahramoni.

Demak, u yolg`on targ`ibotda, olamga bir martagina keladigan odamlarni, xalqni laqqilatib, uning kuchidan foydalanib yashashlariga qarshi. Xuddi shu jixati bilan “Avlodlarga maktub” asari “O`ylarim”ga yaqin turadi. Aldov va riyoga qarshi bu qahramon ham jamiyatda illatlar bo`lmasligini istaydi. Ammo hayotdagi illat va qusurlarga “O`ylarim” qaxramoniga nisbatan o`zgacharoq munasabatda bo`ladi.

Shoir va uning qaxramoni yolg`on targ`ibotga, odamlarni aldashga qarshiligi aniq, ammo bu ziddiyat o`zgacha namoyon bo`ladi. Muallif bu qarshilikni ta`sirliroq ko`rsatish uchun avlodlarga o`z zamondoshlari nomidan xat yozadi. Ularga murojat qilib, bizning zamonimizdagi el ko`zidan yashirin qiyin bo`lgan Toshkent zilzilasi davrlarini o`z paytida chop etilgan kitoblarni, yozilgan gaplaru gazetalarda aks ettirilgan xushnud odamlarning suratlarini ko`rasizlar, bularday qahramon o`tmagan ekanda deb o`ylarsizlar, “Ko`zingiz oldida bir dam Pompeya tarixi” bir chaqa bo`lib qolar, bolalar hech g`am chekmagan, qiynalmagan ekanda, degan hayolga borasizlar deydi: “Dersiz yo Toshkentda hech gap bo`lmagan, yo esa bobolar sirli, shunaqa”. Ammo shoir bu erda hech qanday sir yo`qligini bizning avlodimiz ham qiynalgani, iztirob chekkanini, “Asablar tuproqqa tiz cho`kkanini” eslatadi. Unday bo`lsa, xushnud odamlar surati, ular ostiga yozilgan so`zlar-chi - degan savol tug`iladi. Shoir bu savolga javob berar ekan, ajablanmaslikni maslahat beradi. Chunki:

Do`stlar, jasoratni goh-gohida
Bir oz ko`pirtirib yozar edik biz:
Ba`zan o`zimizga mehrimiz jo`shib,
Bir chetda qolardi zaminu zamon:
O`zi ham bilmagan hislatin o`qib
Uyalib yurardi sho`rlik qahramon.

Bu misralar A. Oripov ijodida 60-yillardayoq ijtimoiy muammolarni she`riy yo`sinda tadqiq etish, illatlarni keskin fosh taomili shakillanganini ko`rsatadi. Bu tamoyil she`riyatga keyinroq kirib kelgan shoirlarga ham ijobiy ta`sir qildi. Ularni zamonsizlik qilmaslikga, xaqiqatni ro`yi rost aytishga o`rgatdi.

Aslida zamondosh haqida yozib hayotni to`g`ri ko`rsatmaslik yolg`onga va soxtakorlikga berilish o`zligini bilgan odamlar uchun, chinakkam ijodkorlar uchun – fojia shoir, yozuvchilar aslida insonni to`g`ri yo`lga solish, ularni xaqqoniy, xalol yashashga undash, aniqirog`i tarbiyalash umidida asar yozadi. Agar o`sha asarning o`zi yolg`onga, soxtalikga asoslangan bo`lsa bundan og`irroq fojia bormi?! Axir odamlarni yolg`onga asoslangan g`oyalar, yolg`on targ`ibotlar orqali rostgo`y qilib tarbiyalab bo`lmaydi-ku! Bu xil asarlar adabiyot rivojiga ham, kishilarning ma`naviy barkamol o`sislariga ham aks ta`sir ko`rsatadi, kishilarning xaqiqatga, zamonaga, matbuotga bo`lgan ixlosini so`ndiradi. Bu esa e`tiqodsizlikga, ishonchsizlikga, manqurtchilikga olib keladi. E`tiqodsizlik, maslaksizlik va manqurtlik qanday oqibatlarni keltirib chiqarganligin sho`ro tuzimning inqirozidan ham ma`lum.

Bir jixatdan olganda, poraxo`r, o`g`ri, kazzob va kallakesarlarning ko`payib ketishiga ayirim yoshlarning to`g`ri yo`ldan yurishlariga ham o`zimizning “jonajon” sho`ro tuzumi aybdor. U kishilarni shunday e`tiqodsiz, maslaksiz qilib tarbiyalagan. Zero, zaminda yashyayotgan oddiy odam gazeta-jurnallarda yozilayotgan fikirlarning aksariyati yolg`on, aldovdan iboratligini ko`rib turib, rostgo`y va e`tiqodli bo`lib etishishi ham qiyin.

Ochig`ini aytganda, xatto iste`dodli shoirlarning 60-yillardagi sherlari orasida hayotiylik xususiyatlari, ozmi ko`pmi tanqidiy ruh sezilib turganlari uchrasa-da, illat va dardlar xaqidagi yuqoridagi kabi o`tli va o`tkir she`rlar kam edi.

Keyinchalik 80-yillarga kelib E.Vohidov ochiq tan olib “Elliginchi yillarda she`riyatga kirganlar ichidagi chinakkam katta talant egasi bo`lgan shoirlar yo`qmidi? Bor edi. Lekin elliginchi yillarda she`riyatda dabdaba va hamdu sanolar

udum boʻlgan edi. Oʻsha yillarda adabiyotga kirgan shoirlarning koʻpchiligi ana shu udumni qabul qildilar, ilk qadamdan boshlab ana shu usulga oʻrgandilar, shunday shakillandilar. Soʻngra oltmishinchi yillarga kelib sheʼriyatda madxiyabozlik chekinganda ularning koʻpchiligi yangi nafasga moslasha olmadilar. Sheʼriyatning bayrogʻini tantanabozlik harobalarida tugʻilgan yangi avlod oʻz qoʻliga oldi”, – deb yozgan edi.

Albatta, biz bu bilan E.Vohidovning 60-yillar sheʼriyati nuqul shunchaki xavoyi sheʼrlaridan iborat edi, u bu yillarda nuqul oyogʻi erdan uzilgan, lirik qaxramonlarning obrazini yaratdi, deya olmaymiz. Zero bunday boʻlishi emas mumkin ham emas edi. Bu davrga kelib shoir rus va gʻarib adabiyotining yaxshi namunalarini oʻqib oʻrgangan, Sergey eseninning sheʼrlarini tarjima eʼtish darajasiga etgan edi. Buning ustiga, shaxsga sigʻinish fosh etilib, rus adabiyotida hayotni haqqoniy ifodalovchi qator asarlar yozilgan, bu paytlar nohaq qatogʻon qilingan Anna Axmatova, Usmon Nosir kabi shoirlarning kitoblari bosilayotgandi.

Tashqi va ichki olimlar sabab boʻlib, yuqorida ham aytilganidek, E.Vohidov ijodiga 60- yillar oʻrtalaridan boshlab hayot tashvishlarining ifodasi kirib keldi. Lirik qahramoni oyogʻi erga yaqinlashib, yuragi odamlar dardiga toʻla boshladi. 1966 yili yozilgan “Uchi tugik dastroʻmol” bu oʻzgarishning natijalaridan biri. Shoir hayotning katta- kichik tashvishlaridan gap ochish uchun “Uchi tugik dastroʻmol” detalini sheʼriy vosita sifatida ishlatadi. Shoir muhim va dolzarb oʻylarini sheʼrga solish uchun ayrim kishilarning belgilangan muhim ishini esdan chiqarmaslik uchun roʻmolchasi uchini tugʻishidek oddiy, ammo hayotiy odatini aks ettiradi. Shoir bu odatdan kelib chiqib toʻgʻrirogʻi uchi tugik dastroʻmoldan ramz sifatida foydalanib, atrof- muhitdagi ayrim narsa hodisalarni, odamlar hayotidagi tashvishlar sheʼriy yoʻsinda ifodalaydi. Har bir fikr obrazli yoʻsinda ifodalanganda keng va koʻp qirrali maʼno kasb etadi , ayni zamonda oʻquvchi ruxiga oʻzgacharoq , chuqurroq taʼsir oʻtkazadi . Sheʼr davomida uchi tuguk dastroʻmol koʻp narsalarga oʻxshatiladi . Shoir nazarida bahorda yuz ocha boshlagan gʻuncha ham, inson koʻkrigidagi betinch qalb ham uchi tuguk

dastro'mol. O'n milliard tuguni bor inson miyasi ham shunga o'qshash. Lirik qahramon hadeb turmush tashvishini o'ylamaslikni maslahat bergan:

O'yla, do'stim kelmay turib o'sha dam,
Isrof qilma yosh yurakning kuchini.
Mana bu gap hech chiqmasin yodingdan,
Tugib qo'yg'in dastro'moling uchini,-

deydi. Demak, shuning o'zi bilan tashvish chekma, degani hazil ekanligi, inson tashvishsiz yashay olmasligini anglatadi. Bu she'r qahramonning hayotga tanqidiy nuqtai nazari teranglashganining belgisidir.

1967–70 yillarga kelib E.Vohidov she'rlarida bir tomondan hayotiylik kuchaygan. “Qozoq oqinlariga“, ”17–yilda tug'ilganlarga“, ”Toshkent paxtakorlariga” she'rlari yozilgan.

Aytmoqchimizki, E.Vohidov va A.Oripov she'riyatining lirik qahramonining yo'li bir tekis yuqoriga yo'nalgan yo'l emas, murakkab, ilonizi yo'ldir. E.Vohidov, A.Oripov she'riyatining o'ziga xosligi shoirlarning Vatan tuyg'usiga, mehnatkash xalq taqdiriga turli xil qarashida ham ko'rinadi.

Ma'lumki, inson qalbida ota-bobolari yashab o'tgan joyga tabiiy mehr tuyg'ulari bo'ladi. Bu tuyg'ular ona allasi, xalqning o'lan va ertaklari, urf-odatlar yurtning suvi-yu havosi orqali qalbiga, jon-taniga o'rnamshadi. Haqiqiy shoirlarning qalbi hamisha Vatan mehri, ona yurt tuyg'usi bilan to'liq bo'ladi. Zero, shoirlikning o'zi ona Vatanni sevmok, uni kuylamoq, odamlarning ildiz otishiga yordam berish demakdir.

Sobiq ittifoq tuzilgandan keyin qadim Turon–O'zbekiston, Turkmaniston, qirg'iziston, qoraqalpog'iston kabi bo'laklarga bo'lindi.

O'zbek lahjasida gaplashuvchi turkiylarga go'yo O'zbekistonning hozirgi hududi stalinchilar tomonidan “in'om” etildi. Shu tariqa ildizi bir xalqlar ajratildi. Shu tariqa 24–yilda O'zbekiston degan yurti “paydo” etishdi. Odamlarga boshqa turkiylarni begona ko'rsatishdi. Bora-bora esa sizning Vataningiz birgina

O'zbekiston emas, butun Shurolar Ittifoqi deya tinimsiz targ'ib qilishdi. Masalan, E.Vohidovning 60–yillarda yozilgan “Vatan” she'ri lirik qahramon Amudan to Chelyuskingacha mening Vatanim, deya e'tirof qiladi. Shuning uchun ham, sho'rolar davrida to 60–yillargasha shoirlardan birontasi mening Vatanim faqat O'zbekiston, deb e'tirof etolmadi. E'tirob etganlari ham albatta, Rossiyada suyangan tog'i, Gurjistonda sevgan o'rtog'i borligini, demak O'zbekiston katta Vatanning bir parchasi ekanligini eslatishni unutishmadi. 1960-yillarga kelib A.Oripov “Men nechun sevaman O'zbekistonni?”-degan she'r yozdi va unda hayotiy–she'riy mantiqdan kelib chiqib, kishi ona Vatanni o'zi uchun qadrdon, tili va dili bir bo'lgan xalq uchun sevadi, degan g'oyani olg'a surdi. Bu g'oya she'riyatimiz uchun, ma'lum ma'noda, yangilik edi.

70-yillarga kelib, E.Vohidov lirik qahramonining mehnatkashlarga, xususan, o'zbek dehqoniga munosabatida ma'lum o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu hol dehqon tilidan ifodalangan “Biz ishlayapmiz” she'rida yaqqolroq ko'rinadi. Mazkur she'rning lirik qahramoni bo'lishi dehqon-sodda, tanti, jo'mard kishi. Uning uchun ishlashdan, mehnatdan osoni yo'q: “Mikrofonga gapirishdan ko'ra bir kun ketmon urganim yaxshi” deb biladi. U o'zining mehnatini og'iz ko'pirtirib, yaltiroq so'zlar bilan maqtashlarga qarshi. U paxta mehnatining qiyinchiliklarini his etadi.

“Paxta ishq” deding, bu ishqmas, shon,
Paxta janonamas, gul ham emas ul.
U peshona teri, mashaqqat, ozor,
Elkadagi yuk-u bizlarga meros.

Lirik qahramon-dehqon ishini o'ziga meros deb biladi, “Asarlari uchun balli ne darkor” deya o'zini bol to'plovchi jonivorga qiyoslaydi. Aslida shoirning lirik qahramoni paxtaning “mashaqqat, ozor” lar bilan etishtirilishin juda yaxshi biladi. Buni uning oy yorug'ida paxtaga suv tarash, g'uzasi chopiqdan chiqarish oson emasligini e'tirof etgan fikirlaridan, hamda she'rning umumiy ruhidan sezish qiyinmas.

Bulardan ma`lum bo`ladiki, E.Vohidovning lirik qahramoni xarakter qirralari asos-e`tibori bilan A.Oripovning lirik qahramoni fikr-tuyg`ularida, ularning qishloq kishilari mehnatiga munosabatida farqlar ham borligi seziladi.

X u l o s a

Odamzod yaratilgandan beri havoga, nurga, mehr-muhabbatga qanchalik muhtoj bo`lsa, chinakam haqiqiy guzallik—she`riyatga ham shunchalar tashna, she`riyat shunchalik jozibali, sehrli kuyki, bu kuy inson ichki ruhiyatining eng nozik torlari tebranishidan paydo bo`ladi. U shunday qudratga ega qo`shiqki, uni borliq dardlarini, dunyo shodliklarini yelkasiga yuklagan yurakkina kuylay oladi. Ijodkorlar hamisha yuksaklikka, ezgulikka intiladi, tasavvuridagi g`oyalari, pokiza tuyg`ulari, yuksak orzu-umidlari bilan yashaydi.

60-80 yillar she`riyatida hayotni badiiy tadqiq etish, qahramon yaratish borasida hayotiylik, haqqoniylik, milliylik va umuminsoniylik asosida shakllangani, bu yillarda ijod qilgan shoirlar shakliy jihatdan H.Olimjon, Uyg`un, G`.G`ulom vorisi tarzida ko`rinsalarda, aslida mazmunan Cho`lpon, Fitrat, hamda Oybeklarning an`analarini davom ettiruvchilar sifatida namoyon bo`lganlari, ular ko`pchilik hollarda qalb amri, vijdon da`vati bilan ijod qilganlari, ko`plab she`riy obrazlarga millatimizning dard-orzularini, iztirob va quvonchlarini joylaganlarini ko`rish mumkin.

Ta`kidlash kerakki, davr muammolarini ro`y-rost aks ettirish va masalani qahramonlar taqdirida ifodalash borasida shoirlar uslubi ijodi o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xususan, 60-yillarda E.Vohidovning qahramoni ura-urachilikka berilib, dehqon mehnatini baland ohanglarda ulug`lash bilan ovora bo`lganda A.Oripov

qahramoni butin qalbi, vujudi bilan bu xil kishilarni ma'naviy jihatdan mayib qiladigan qullik mehnatiga qarshi isyonkorona chiqishlar qilgan edi.

60-yillarda A.Oripovning lirik qahramoni hayotdagi dolzarb masalalarni poetik yo'sinda aks ettirgan edi. E.Vohidov qahramoni unga qarama-qarshi o'loroq, shodlik va baxt, hayotdagi shirin tashvishlar haqida ko'proq so'z yuritdi. Aksincha, E.Vohidov 70-yillarning oxiridan boshlab hayotga faol inson ko'zi bilan qaray boshlasa, A.Oripov Vatan va paxtakor mehnatiga bag'ishlangan she'rlarinig lirik qahramoni nisbatan passivlashadi.

Demak, iste'dod va e'tiqod nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin shoirlarning bittasi ijodida g'oyaviy-badiiy yuksalish yuz berganda ikkinchisining she'rlarida shunga monand ravishda, pasayish yuz berishi ham o'ziga xos qonuniyat bo'lib, A.Oripov, E.Vohidov kabi zabardast shoirlar ijodida bu hol namoyon bo'lgan.

Bu holni biz tabiiy deb bilmog'imiz, shoirlarning ijod yo'li qanday bo'lsa shundayligicha ko'rmog'imiz va ko'rsatmog'imiz lozim. Chunki, shoir siyosiy arbob emas, u kayfiyat, ruhiyat kishisi. Uning ruhiyati va kayfiyati hayotda duch kelgan turli, yaxshi-yomon voqea-hodisalarga, jarayonlarga bog'liq ravishda tez-tez o'zgarib turishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chin ma'nodagi iste'dod adiblar ijodi, e'tiqodi, kurashlari hayot yo'liga bog'liq ravishda murakkab kechadi. Shoir xalq va haqiqat tomonidan turib, ilohiy e'tiqod ta'sirida qalam surganda, mukammal, hayotiy asarlar, aksincha, el-yurt manfaatlariga emas, shaxsiy, o'tkinchi "shamol"larga bo'ysungan paytlarda soxta va g'oyaviy-badiiy bo'sh asarlar yuzaga keladi.

She'riyatga 50-yillar oxiri va 60-yillar boshlarida kirib kelgan E.Vohidov, A.Oripov kabi shoirlar davridagi muayyan qiyinchiliklarni, yolg'on g'oyalarni yengib o'tib, 20-30-yillar she'riyatida urf bo'lgan mayin lirizmning qayta shakllanishiga, tanqidiy ruhning kuchayishiga, faol lirik qahramon obrazining paydo bo'lishiga kata hissa qo'shdilar.

Shu bilan birga Cho'lpon, Botu, Oybek an'analari yo'lidan borib Vatan tuyg'usining yurtdoshlarimiz qalbida o'rnamshuvi uchun jonbozlik ko'satib,

O'zbekistonda yaxshi ma'nodagi milliy hissiyotning shakllanishiga yo'l ochdilar. Milliy tamoyillar va faol inson obrazining yaratilishi bunga yo'l ochib beradi.

Ko'rib o'tganimizday, bu ikki zabardast shoirning ijod yo'li, xuddi Cho'lpon, Botu ijod yo'li kabi murakkab, ziddiyatli kechdi va bu hol tabiiy, ijodiy jarayonning, davrdagi tamoyillarning, shoirlar iste'dodli va e'tiqodning mahsulidir. Shoir qanchalik iste'dodli bo'lib, buning ustiga kuchli e'tiqod, imon egasi bo'lsa, uning she'riyatida milliy ruh shunchalik teran va o'tkir shaklda aks etadi, xalqning dardi, orzu-umidlari uchun kurashuvchi vatanparvar, xalqparvar, faol inson obrazi ham o'lmas siymo sifatida namoyon bo'ladi. E'tiqod, iste'dodi sust shoirlar esa xalq qalbiga emas, yuqorida va yon tomondan esgan turli shamollarga ko'proq diqqat qiladilar va ular ta'siriga boriladilar.

60-80 yillarda milliy ruhni, xalq qalbini, orzu armonini kuylagan shoirlar yuqorida ijodlaridan misollar kelitirilgan shoirlardangina iborat emas. Shuningdek, hayotni she'riy tadqiq etishning taomil va taomillari, shoirlarmiz o'z she'rlarida ishlatgan usul-uslublar, obraz va tashbehtar ham xilma-xildir. 60-80 yillar she'riyatidagi shu xil muvaffaqiyatlar tufayli o'zbek lirikasida XX asrning ikkinchi yarmida yashagan va yashayotgan zamondoshimizning his-tuyg'ulari va orzu o'ylari to'liq tasavvur etiladigan darajada gavdalandi. Bu shoirlar o'ziga xos ifoda tarziga, yangilikka erisha olganligining, ular ijodida ilg'or tamoyillar qaror topganligining, binobarin, adabiyotimizda jahon she'riyatiga hissa bo'lguvchi asarlar ko'pyanligining muhim belgisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Bunyodkorlik yo`lida. 4-jild. Toshkent, «O`zbekiston». 1996.
2. Karimov I. O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo`nalishlari. Toshkent, «O`zbekiston». 1996.
3. G`afurov I. She`riyat-izlanish demak. Toshkent, «Adabiyot va san`at» nashriyoti 1977-y.
4. Normatov U. Go`zallik bilan uchrashuv. Toshkent, «Yosh gvardiya». 1976.
5. Sharafiddinov O. Zamon, qalb, poeziya. Toshkent, O`zdavnash. 1962.
6. Adabiyot nazariyasi. II tomlik. Toshkent, «Fan» 1978-1979.
7. Norboev.B. Kurashchan she`riyat. Toshkent, «Adabiyot va san`at» nashriyoti, 1977.
8. G`afurov I. Lirikaning yuragi. Toshkent, «Yosh gvardiya». 1979.
9. Akromov B. Qalb poklanmog`i kerak. «Sharq yulduzi». 1986. №9.
10. Haqqulov I. Shoir bo`lish qiyin. «Sharq yulduzi». 1985. №3.
11. Xudoybergenov N. Ishonch. Toshkent, «Adabiyot va san`at» nashriyoti. 1988.
12. Xudayberganov N. Haqiqat yog`dulari. Toshkent, G`afur G`ulom «Adabiyot va san`at» nashriyoti. 1985.
13. Xudayberganov N. Seni o`ylayman zamandosh. Toshkent, «Adabiyot va san`at» nashriyoti. 1983.

14. Xudayberganov N. O`z dunyosi, o`z qiyofasi. Toshkent, «Yosh gvardiya» 1986.
15. Hozirgi o`zbek adabiyotining milliy o`ziga xosligi. Toshkent, «Fan» 1984.
16. Hozirgi adabiy jarayonining aktual problemalari. Toshkent, «Fan» 1984.
17. Norboev B. Istiqlol va iste`dod tarbiyasi. Toshkent, «O`qituvchi». 1996.
18. Shukurov N. Shoirning yulduzi -T.: 1989.
19. Hammualliflar. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. -T.: 1999.
20. Xudayberganov N. Davonlardan davonlarga. -T.: 1989.
21. Xamdamov U. Davr ruhining she`riyatda aks etishi. O`zbek tili va adabiyoti. 2001. 1-son.